

BOSHQARUV JARAYONIDA PEDAGOGIKA FANINING AHAMIYATI

Alimova Qunduz Oybek qizi
Maktab menejmenti o'qituvchisi
Sulxanova Feruza Nurulla qizi ,
Rashidova Noila Bosim qizi
maktab menejmenti 1-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshqaruv jarayonida pedagogika fanining ahamiyati hamda boshqaruv jarayonida rahbar madaniyati va rahbar shaxsi haqida fikrlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, pedagogik ta'limot, kasb-hunar ta'limi, maktab menejmenti, rag'bat, xodim.

Har bir inson farzand shakllanishi uchun tarbiya bilan shug'ullanadilar. Tarbiya qanday bo'lishidan qat'iy nazar tarbiya usullari muttasil davom ettiriladi. Shu yuzasidan maxsus pedagoglar, psixologlar xuddi ota-onalar kabi farzand tarbiyasiga ma'suldirlar. Ularni boshqarishda pedagoglar tajribali bo'lishi kerak. Pedagogik ta'limotining tarixi tarbiyaning rivojlanish masalalarini ijtimoiy hodisa sifatida tadbiiq etuvchi pedagogik bilimlar tarmog'idir. U ilg'or pedagogik g'oyalarning salbiy g'oyalarga qarshi kurash tarixini namoyon etadi. Hukmron tabaqalarning demokratiyaga qarshi siyosatini ochib tashlaydi, ilg'or pedagogik g'oyalar hurfikrlar ta'lim qonuniyatining ayrim olingan tarixiy davrdagi rivojlanish tamoyillarini taxlil qiladi, muhim umumiy xulosalar chiqaradi va bugungi kun uchun dolzarb muammolarni o'rtaga tashlaydi.

Tarbiya deganda, umuman insonlarning o'zaro munosabatlari jarayonida, ular birgalikda faoliyat ko'rsatadigan jamoada yoki alohida olingan bir o'quv-tarbiya muassasasida amalga oshiriladigan, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan maxsus tarbiyaviy tadbirlar, ma'lum bir faoliyat yo'nalishida dunyoqarashni shakllantirish bilan bog'lik jarayon tushuniladi va bu jarayon boshqaruv jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Demak, pedagogika insonni tug'ilganidan boshlab to umrining oxirigacha hayot va turmush odobiga o'rgatuvchi hamda bu jarayonlarni tahlil hamda tadqiq etuvchi fandır. Tarbiya va tarbiyashunoslik haqidagi bu ta'rifning ma'no va mazmuniga odamlarning butun umri davomidagi xulq-atvori, odob-axloqi, bu boradagi milliy an'analarga sadoqat va bularga tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchining to'la amal qilishi, milliy qadriyat, ma'naviyat va ma'rifatga hurmat, iymon va vijdon singari go'zal fazilatlar singgan. Pedagogikada tarbiyalanuvchilarni yoshiga ko'ra maktabgacha yoshdagi, maktab yoshidagi va katta yoshdagilar deb qabul qilinadi. Hozirgi zamon pedagoglari maktab yoshidagi bolalarga nisbatan ancha tajribali, bolani o'ziga jalb qiluvchi uning psixologiyasini o'rganuvchi bo'lishlarini talab qiladi.

Shuni aytish joizki, boshqaruv jarayoniga uning rivojlanishiga shubhasiz pedagogik bilimlar kerak bo'ladi.

Boshqaruv ilmining yirik namoyondalari ham avvalo murabbiylar tomonidan tarbiyalangan. Hozirgacha ularning bilim va qo'llanmalari hozirgi davrgacha yetib kelib, ulardan foydalanilmoqda. Buning natijasida tashkilotlar, korxonalar, xususan maktab boshqaruv jarayonlarini rivojlantirmoqda. Albatta, bu yurtimiz manfaatlari yosh avlodning yuksalishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda maktab boshqaruvi ham tajribali kadrlar tomonidan boshqarilishi zamon talabi bo'lmoqda. Mamlakatimizda ham 2019-yildan oliy o'quv yurtlarida "Maktab menejmenti" yo'nalishi ochildi. Bundan maqsad maktabda boshqaruv jarayonini yanada takomillashtirish, boshqaruv jarayonini to'g'ri boshqarish g'oyalari olg'a surilgan.

Pedagogik boshqaruv har xil turlarga bo'linadi. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi - umumiy o'rta talim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari yoshida bo'lgan bolalar litseylar va kasb-hunar kolleji shart sharoitlardagi o'quv tarbiyaviy jarayonining o'ziga xosligini tadbiq etadi.

Shuningdek, maktab pedagogikasi esa umumiy o'rta ta'lim maktablariga ta'lim berish va tarbiyalashning qonuniyatlarni taqdim etadi.

Fikrimizcha, maktab rahbari birinchi o'rinda xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash va ularni fikrini inobatga oladigan hammani teng ko'radigan, rejalashtirilgan ishlarni o'z vaqtida bajradigan yetuk mutaxassis bo'lishi kerak. O'zini ko'rsata olgan xodimlarga o'z vaqtida rag'batlantirishlar berishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Rag'bat kechiktirilsa ham jazo kechiktirilmasligi kerakligini ham bilish lozim. Xodimlarni ishlash jarayonida muntazam nazorat qilish, ularga yetarlisha imkoniyat berish, malaka va ko'nikma berish lozim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova, Q. (2021). УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. Джизакское инновационное образование, 1(1). Извлечено от <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
2. Alimova, Q. (2021). FARZAND TARBIYALASHDA OTA-ONALARNING ASOSIY XATOLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/594>
3. Alimova, Q. (2020). Farzand tarbiyalashda ota-onalarning asosiy xatolari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/436>
4. Alimova Kunduz Oybek qizi, & Nazarov Toshpolat Boshbek ogli. (2020). WAYS TO ACHIEVE SUCCESS IN EDUCATION. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(4), 204-205. Retrieved from <http://summusjournals.com/index.php/ijdiie/article/view/343>
5. Nazarov, T. (2021). КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ - ИДЕАЛЬНАЯ ОСНОВА ДЛЯ БУДУЩИХ ПРОФЕССИЙ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/459>

6. Alimova, Q. (2021). ZAMONAVIY MENEJER FAOLIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/920>
7. Alimova Kunduz Oybek qizi, & Toshboyeva Hulkar Mirzaboy qizi. (2021). ISSUES OF ETHICS AND ETHICS IN THE CHILDHOOD OF HAZRAT SHAIKH MUHAMMAD SADIQ MUHAMMAD YUSUF. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 93–95. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1227>
8. Alimova, Q. (2021). TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH. *Jizzax innovatsion ta'limi*, 1 (1). <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
9. Alimova, K. O. K., Toshboyeva, K. M. K., & Ungarov, B. T. U. (2021). TODAY'S STUDENT IS TOMORROW'S LEADER. *Scientific progress*, 2(2), 308-310. <https://cyberleninka.ru/article/n/todays-student-is-tomorrows-leader>
10. Toshboyeva, H. (2021). ZAMONAVIY MENEJER VA YETAKCHI. *Мир исследований*, 1(1). извлечено от <https://presedu.jspi.uz/index.php/journal/article/view/937>
11. Usmonov, A. (2021). IQTISODIY SAVODXONLIK VA IQTISODIY TA'LIMNING TARBIYAVIY AHAMIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://science.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1326>
11. Ablyakimova, R. (2020). VIEW AND THEORIES ON FACTORS INFLUENCING MANAGEMENT DECISION-MAKING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 11(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1052.
12. Botirov, B. F., Usmonov, J., & Ablyakimova, R. I. (2021). Organization Of Tourism Services In Uzbekistan Based On The Combination Of National Styles And Modern Innovations. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES*, 53–57
13. Аблякимова, Р., & Alimova, Q. (2021). TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1535>
14. Аблякимова, Р., & Usmonov, A. (2021). Умумтаълим мактабнисамаралибошқариш даянги чаёндошув. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1537>
15. Аблякимова, Р. (2021). НОДАВЛАТ МАКТАБЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1536>.
16. Аблякимова, Р. (2021). ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1527>.